

OLIIY TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM SIFATI TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI.

G'afurova Munojot Mo'minova

Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti

Tel: 97-762-59-07

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim tizimida ta'lim sifati tushunchasi va uning mohiyati tahlil qilingan. Ta'lim sifatining falsafiy-metodologik asoslari, zamonaviy talqinlari, tarkibiy qismlari va uni ta'minlash shartlari yoritilgan. Xorijiy olimlarning tadqiqotlari asosida ta'lim sifatini baholashning turli yondashuvlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ta'lim sifati, sifat tushunchasi, sifat komponentlari, sifat mezonlari, ta'lim standartlari, sifatni baholash.

КОНЦЕПЦИЯ И СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Гафурова Муножот Муминовна

Докторант Ташкентского государственного транспортного университета

Tel: 97-762-59-07

Аннотация: В статье анализируются понятие и сущность качества образования в системе высшего образования. Освещены философско-методологические основы, современные интерпретации, компоненты качества образования и условия его обеспечения. На основе исследований зарубежных ученых изучены различные подходы к оценке качества образования.

Ключевые слова: высшее образование, качество образования, понятие качества, компоненты качества, критерии качества, образовательные стандарты, оценка качества.

THE CONCEPT AND ESSENCE OF EDUCATION QUALITY IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Gafurova Munojot Muminovna

Doctoral student at Tashkent State Transport University

Abstract: The article analyzes the concept and essence of education quality in the higher education system. The philosophical and methodological foundations, modern interpretations, components of education quality and conditions for its provision are covered. Various approaches to assessing education quality are studied based on research by foreign scientists.

Keywords: *higher education, education quality, quality concept, quality components, quality criteria, educational standards, quality assessment.*

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlash eng dolzarb masalalardan biriga aylangan bo'lib, u o'quv jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi o'ziga xos va murakkab tizimdir. Ta'lim sifati haqida so'z borganda aksariyat mutaxassislar o'quv jarayonining sifati, ta'lim beruvchilarning salohiyati, tizimning etarli darajada moddiy-texnik bazasi, o'quv-uslubiy ta'minot va boshqa ko'plab omillar yig'indisidan iborat deb tushuntirishadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan omillar an'anaviy ta'lim bilan bog'liq yondashuvlar bo'lib, hozirgi davrda ushbu yondashuvlar to'ldirilib, takomillashtirilib borilmoqda. Unga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlash uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish va ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish kabi muhim vazifalarning amalga oshirilishi shubhasiz tizimning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Bozor munosabatlari sharoitida oliy ta'lim muassasalari o'z faoliyatini iste'molchilar, ya'ni talabalar va ish beruvchilarning talablaridan kelib chiqqan holda tashkil etishlari, ta'lim sifatini doimiy ravishda takomillashtirib borishlari zarur bo'lib, bu pirovard natijada mamlakat iqtisodiyoti uchun malakali kadrlar tayyorlash imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga etaklaydi. Shu sababli mamlakatimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi prinsipiga asoslangan, bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratishga harakat qilinayotgani bejiz emas"[1].

Yuqorida ta'kidlanganidek, inson kamoloti va jamiyat taraqqiyoti aynan ma'rifat orqali ta'minlanadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda ta'lim sohasidagi

islohotlar uzluksiz ta'lim tamoyiliga asoslangan bo'lib, insonning butun hayoti davomida, ya'ni tug'ilganidan to etuk mutaxassis bo'lguniga qadar uni qo'llab-quvvatlash, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish kabi muhim vazifalarni o'z ichiga oladi. Bu esa o'z navbatida har bir fuqaroning sifatli ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi va o'z salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish orqali mamlakatimizning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishish imkonini beradi.

Tadqiqotimiz markazida turgan oliy ta'lim tizimida ta'lim sifati tushunchasi va uning mohiyatini alohida o'rganish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki oliy ta'lim tizimida ta'lim sifati - bu nafaqat o'quv jarayonining samaradorligi, balki butun ta'lim tizimining raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omildir. Bu borada ta'lim sifatini ta'minlash uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, xalqaro standartlarga mos keladigan o'quv dasturlarini ishlab chiqish va eng asosiysi, ta'lim sifatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish kabi masalalarni chuqur o'rganish talab etiladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari faoliyatida sifat menejmenti tizimini joriy etish, ta'lim xizmatlari iste'molchilari - talabalar, ish beruvchilar va jamiyatning ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim mazmunini takomillashtirish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim sifati ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u doimiy ravishda rivojlanib va takomillashib borishni ko'zda tutadi. Mumtoz va zamonaviy tadqiqotlar ta'lim sifatini kompleks baholash va uni global miqyosda takomillashtirish yo'llarini izlashga qaratilgan bo'lib bu borada aksariyat xorijiy davlatlarda tadqiqotlar olib borilgan. Fikrimizni dalillash maqsadida ayrim olimlarning tadqiqotlarini, ularning mazmun-mohiyatini keltirib o'tamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifati masalasini o'rgangan xorijlik olimlardan Velzant, Shindler, Puls-Elvidj va Krouford kabi tadqiqotchilar ta'lim sifatini turli madaniy kontekstlarda o'rganish va uning konseptual modelini yaratish bo'yicha

muhim ishlarni amalga oshirganlar. Shuningdek, Srikanxan va Dalrimpl oliy ta'lim sifatini ta'minlashning yaxlit tizimini ishlab chiqqan bo'lsa, Blanko-Ramirez va Berger va boshqa qator olimlar xalqaro miqyosda ta'lim sifatini baholash mexanizmlarini tadqiq etganlar.

Turli tadqiqotchilarning oliy ta'lim sifati borasidagi qarashlarini tahlil qilganda, bu masalaga har bir olim o'zining alohida yondashuvini taklif etganini ko'rish mumkin. Xususan, "oliy ta'lim sifati transformatsion, maqsadga muvofiqlik va noyoblik jihatlaridan o'rganilishi lozim bo'lgan ko'p qirrali tushunchadir"[2] deb ta'kidlaydi Shindler. Srikanxan va Dalrimpl esa "oliy ta'lim xizmatlari sifatini faqat miqdoriy ko'rsatkichlar bilan o'lchash noto'g'ri bo'lib, bu jarayonda korporativ modellardan foydalanish samarasizdir"[3] degan xulosaga keladilar.

Blanko-Ramirez va Berger tomonidan xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar natijasida "oliy ta'lim sifatini yaxshilash uchun ta'limning dolzarbligi, unga kirish imkoniyati va investitsiyalar"[4] kabi omillarni o'z ichiga olgan model ishlab chiqilgan bo'lib, unga modelga ko'ra, tadqiqotchilar xalqaro tajribani o'rganish asosida sifatni oshirishning uch muhim komponentini ajratib ko'rsatadilar. Birinchidan, ta'limning dolzarbligi, ya'ni o'quv dasturlari va metodlarning zamonaviy talablarga mosligi, mehnat bozori ehtiyojlarini qondirishi hamda global tendensiyalarni aks ettirishi talab etiladi. Ikkinchidan, ta'limga kirish imkoniyati muhim ahamiyat kasb etadi – bu erda nafaqat moliyaviy, balki geografik va ijtimoiy omillar ham inobatga olinishi zarur. Uchinchidan, sifatli ta'limni ta'minlash uchun etarli investitsiyalar zarur bo'lib, bu mablag'lar moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilish, o'qituvchilar malakasini oshirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilishi kerak.

Mualliflarning ta'kidlashicha, bu uch komponent bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning har biri boshqalariga ta'sir ko'rsatadi va o'z navbatida ulardan ta'sirlanadi. Shuningdek, model turli mamlakatlar va muassasalarning o'ziga xos sharoitlariga moslashtirilishi mumkin bo'lib, sifatni ta'minlashni uzluksiz jarayon sifatida ko'rib chiqadi.

Velzant va uning hammualliflari esa “har bir ta’lim muassasasining o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, oliy ta’lim sifatini ta’minlashda kontekstual yondashuvni qo’llash maqsadga muvofiqdir”[5] degan fikrni ilgari suradilar.

Oliy ta’lim sifati tushunchasini tadqiq etishda Lasveeva tomonidan taklif etilgan konseptual yondashuv alohida e’tiborga molik. Muallif oliy ta’lim sifatini uchta asosiy jihatdan - etalon (namuna) sifatida, resurs salohiyati sifatida va baholanadigan natija sifatida o’rganishni taklif etadi. “Ushbu uch jihat va ulardan kelib chiqadigan yondashuvlar oliy ta’lim sifatini aniqlashning mualliflik konsepsiyasi asosini tashkil etishi mumkin. Shunday qilib, sifat haqida, birinchidan, uning etalonini anglaganda (sifat namuna sifatida); ikkinchidan, uni ta’minlash uchun resurslar mavjud bo’lganda (sifat resurs salohiyati sifatida); uchinchidan, oliy maktab ijtimoiy makonining turli ishtirokchilari maqsadli yo’nalishlarini muvofiqlashtirishda (sifat baholanadigan natija sifatida) so’z yuritish mumkin”[6].

Oliy ta’lim tizimida ta’lim sifati tushunchasi va uning mohiyatini to’g’ri anglash uchun, avvalo, “sifat” kategoriyasining ijtimoiy talqiniga e’tibor qaratish lozim. L Yevdakovanning ta’kidlashicha, “Sifat - bu moddiy yoki ideal ob’ektning (narsa, hodisa yoki jarayonning) uning mavjudligidan ajralmas bo’lgan, uni boshqa ob’ektlardan farqlovchi muhim xarakteristikasidir”[7]. Bunda sifatning o’zgarishi muqarrar ravishda ob’ektdagi o’zgarishlarni keltirib chiqaradi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim sifati - bu nafaqat talabalarning bilim, ko’nikma va malakalari, balki ularning shaxsiy, ma’naviy-axloqiy, fuqarolik-vatanparvarlik fazilatlarini hamda turli sohalaridagi muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatlarining uyg’unligidir.

Oliy ta’lim muassasasining sifat tizimi o’zaro bog’liq bo’lgan pedagogik, axborot, moddiy-texnik va moliyaviy ta’minot komponentlaridan iborat bo’lib, ularning samarali faoliyati ta’lim sifatini ta’minlashning asosiy sharti hisoblanadi. Bu funksional-faoliyatli yondashuv doirasida oliy ta’lim sifatini yaxlit tizim sifatida o’rganish va boshqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, ta’lim sifatini baholashda bilim paradigmasi, ta’lim muassasasi faoliyati samaradorligi va standartlarga muvofiqlik kabi turli yondashuvlar mavjud bo’lib, ular ta’lim sifatini turli jihatlardan tahlil qilish imkonini beradi.

Oliy ta'lim sifatini oshirishni A Paramonov quyidagi uch guruhga ajratib ko'rsatgan. "Umumiy, maxsus va instrumental guruhlar. Umumiy shartlarga ta'lim muassasasining optimal faoliyati va rivojlanishi, o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish kiradi. Maxsus shartlar talabalarning ijodiy salohiyatini, bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Instrumental shartlar esa pedagoglarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashi, o'quv mashg'ulotlarini an'anaviy va innovatsion shakllarda tashkil etish metodikalaridan samarali foydalanishni qamrab oladi"[8]. Mazkur shartlarning bajarilishi oliy ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining sifat ko'rsatkichlari masalasiga to'xtalar ekan, Lasveeva beshta asosiy mezonni ajratib ko'rsatadi - intellektual, axloqiy, ijodiy, sog'liq va kasbiy rivojlanish. "Oliy o'quv yurti bitiruvchisi shaxsni intellekt, axloq, ijod, sog'liq, kasbiy mahorat kabi jihatlardan takomillashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Aynan shu mezonlar oliy ta'lim institutining ideal modelida barcha ishtirokchilar o'rtasidagi institutsional o'zaro aloqalarni muvofiqlashtirish indikatorlari sifatida namoyon bo'ladi"[7].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Oliy ta'lim sifati - bu ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari tomonidan e'tirof etiladigan so'nggi natija bo'lib, u ikki muhim vazifani bajarishi lozim. Birinchidan, u jamiyat oldida turgan umumiy maqsadlarga - yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularni jamiyatga moslashtirish va ilmiy yangiliklarni amaliyotga joriy etishga xizmat qilishi kerak. Ikkinchidan esa, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining - talabalar, o'qituvchilar va ta'lim muassasasining shaxsiy maqsad va intilishlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatini yaratishi zarur. Bu ikki jihatning uyg'unligi oliy ta'lim sifatining asosiy mezoni hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifati - bu ta'lim jarayonining muhim xususiyatlari yig'indisi bo'lib, u ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati, talabalar bilimi, moddiy-texnik baza va zamonaviy ta'lim texnologiyalari kabi omillar bilan belgilanadi. Ta'lim sifati nafaqat o'quv

jarayonining samaradorligi, balki butun ta'lim tizimining raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Ta'lim sifatining asosiy komponentlari sifatida infratuzilma va akademik qo'llab-quvvatlash, o'qitish jarayoni sifati va uning izchilligi, talabalar qoniqish darajasi kabi omillar belgilangan. Bu komponentlar sifatni ta'minlash mexanizmlari orqali - sifat nazorati tizimlari, akkreditatsiya jarayonlari va xalqaro standartlarga muvofiqlik kabi yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Umuman olganda oliy ta'lim sifati ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u nafaqat shaxsning kasbiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga, balki jamiyatning iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim sifatini ta'minlash to'rt asosiy yo'nalishni qamrab oladi: zamonaviy raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish, mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga tezkor moslasha olish, xalqaro ta'lim standartlariga javob berish hamda talabalarning ta'lim olish bilan bog'liq ehtiyoj va intilishlarini to'laqonli qondirish.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, oliy ta'lim sifati ko'p qirrali tushuncha sifatida talabalarning nafaqat akademik bilim va amaliy ko'nikmalarini, balki ularning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, ijodiy fikrlash qobiliyati, jamiyatda o'z o'rnini topa olish mahorati kabi shaxsiy fazilatlarini ham qamrab oladi. Bu esa ta'lim sifatini baholashda faqatgina bilim darajasini emas, balki talabaning har tomonlama rivojlanishini inobatga oluvchi kompleks yondashuvni talab etadi. Shuningdek, ta'lim sifatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini ham e'tiborga olish zarur.

Ta'lim sifatini ta'minlash tizimining asosiy komponentlari - pedagogik (malakali o'qituvchilar, zamonaviy o'quv dasturlari), axborot (o'quv-uslubiy ta'minot, elektron resurslar), moddiy-texnik (binolar, laboratoriyalar, jihozlar) va moliyaviy ta'minot (byudjet mablag'lari, grantlar) bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Biror komponentning zaifligi butun tizim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, barcha komponentlarni muvozanatli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim sifatini oshirishning umumiy shartlari (moliyaviy va moddiy-texnik baza, malakali kadrlar), maxsus shartlari (o'quv jarayonini tashkil etish metodikasi, innovatsion pedagogik texnologiyalar) va instrumental shartlari (nazorat-baholash tizimi, sifat menejmenti) mavjud. Ushbu shartlarning to'liq bajarilishi ta'lim sifatini ta'minlashning asosiy garovi hisoblanadi. Bu shartlarning har biri bo'yicha aniq mezonlar va indikatorlar ishlab chiqilishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida xalqaro standartlarga mos sifat menejmenti tizimini joriy etish orqali ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida sifatni nazorat qilish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Bu jarayonda xalqaro standartlardan foydalanish, xorijiy etakchi universitetlar tajribasini o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy raqamli texnologiyalar - masofaviy ta'lim platformalari, elektron ta'lim resurslari, virtual laboratoriyalar, simulyatorlardan faol foydalanish lozim. Professor-o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga o'rgatish bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

Mehnat bozorining o'zgaruvchan talablarini muntazam o'rganish, ish beruvchilarning ehtiyoj va takliflarini inobatga olgan holda o'quv dasturlarini yangilab borish kerak. Bunda nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, talabalarning ishlab chiqarish amaliyotini samarali tashkil etish, ish beruvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

Ta'lim sifatini baholashda talabalar va bitiruvchilarning fikrlarini o'rganish, ularning ta'lim jarayonidan qoniqish darajasini aniqlash, shuningdek ish beruvchilarning bitiruvchilar tayyorgarligi haqidagi fikrlarini muntazam monitoring qilish tizimini yo'lga qo'yish kerak. Bu ma'lumotlar tahlili asosida ta'lim dasturlari va o'qitish metodikasiga tegishli o'zgartirishlar kiritib borish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston" 2021. – B. 224.

2. Schindler L. A. et al. Higher Learning Research Communications // Definitions of quality in higher education: A synthesis of the literature, 2015. – P. 3-13.
3. Srikanthan G., Dalrymple J. F. Developing a holistic model for quality in higher education // Quality in Higher Education, 2002. – P. 215-224.
4. Blanco-Ramírez G., B. Berger J. Rankings, accreditation, and the international quest for quality: Organizing an approach to value in higher education // Quality Assurance in Education, 2014. – P. 88-104.
5. Welzant H. et al. Definitions of quality in higher education: A synthesis of the literature // Higher learning research communications, 2011. – P. 19-35.
6. Лацвеева А.В. Качество высшего образования: операционализация понятия. Гуманитарий Юга России. 2021;11(4):150-160.
7. Евдакова Л.Н. Проектирование инновационной системы качества образования в вузе [диссертация]. – Екатеринбург; 2005. – С. 21.
8. Парамонова А.Ю. Качество образования, его критериальные показатели. Составляющие педагогического успеха в условиях модернизации образования: Межвузовский сборник научных трудов. – Чебоксары, 2006. – С. 35 – 44.